

JAMOATCHILIK NAZORATI: TARIX VA BUGUN

Umarov Murodjon Mamatkarim o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

murodbekumarov0512@gmail.com

+998946745040

<https://orcid.org/0009-0008-0202-0888>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22721061>

Annotatsiya: Maqolada jamoatchilik nazoratining mohiyati, tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyati, fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratini birgalikdagi rivojlanishi shuningdek, jamoatchilik nazoratini olib boruvchi subyektlar, uni amalga oshirish shakllari va jamoatchilik nazorati prinsplari haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati, davlat, "SSSR Xalq nazorati qo'mitasi", "SSSR xalq nazorati organlari", davlat boshqaruvi, ijroiyy organlari, demokratiya, fuqarolik jamiyati, muxtor respublika.

Аннотация: В статье мониторинг, история и значение контрольного контроля, гуманное общество и процесс осуществления контроля, подотрасли, проводящие контроль, контроль пути контроля, который его осуществляет.

Ключевые слова: надзорный контроль, государство, "Комитет народного контроля СССР", "Контрольные органы СССР", государственное управление, органы исполнительной власти, демократия, гражданское общество, автономная республика.

Abstract: The article describes the essence, history and importance of public control, the joint development of civil society and public control, as well as the

entities conducting public control, the forms of its implementation, and the principles of public control.

Key words: *public control, state, “People's control committee of the USSR”, “People's control bodies of the USSR”, state administration, executive bodies, democracy, civil society, autonomous republic.*

KIRISH (INTRODUCTION):

Jamoatchilik nazorati demokratiya va xalq hokimiyatchiligining muhim instituti hisoblanib, u davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish orqali fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari muhofazasini ta'minlashga xizmat qiladi [5].

Mustaqillik yillarida tarixiy davr mobaynida hamda bugungi kunda amalga oshirilgan qator iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hamda siyosiy-huquqiy islohotlar shuningdek, davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish zarur ahamiyatga ega. Shu bois chuqur o'ylab, nafaqat davlatni balki xalqimizni manfaatlaridan kelib chiqqan xolda 2014-yil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga o'zgartirish kiritildi [2]. Ushbu o'zgartirish Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asosini yaratdi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 32-moddasiga kiritilgan ushbu o'zgartirish asosida 2018-yil 12-aprelda Oliy Majlis tomonidan O'zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonuni qabul qilindi. Jumladan O'zbekiston Konstitutsiyasining 32-moddasida shunday deyiladi: “O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqaris referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi” [1]. Bu qonun davlat hokimiyati va boshqaruv

organlarining xalq oldidagi mas'uliyatini yanada oshirdi. Xususan, ushbu qonun bilan vakolat berilgan va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan tashkilot va organlar, ya'ni subyektlarning huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, vakolatlari belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. (LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY):

O'tmishga nazar soladigan bo'lsak, yurtimiz mustaqillikka erishgungacha bo'lgan tarixiy davrda ham jamoatchilik nazorati mavjud bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun 1965-yil dekabr oyida SSSR Oliy Soveti partiya va davlat nazorati organlarini "Xalq nazorati organlari"ga aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi [7].

Xalq nazorati qo'mitasi - SSSRdagi davlat nazorati tizimi organlaridan biri bo'lib, davlat rejalarining bajarilishi, intizomning buzilishi, iqtisodiy va xo'jalik zaxiralarini aniqlash, resurslarni sarflash ustidan nazorat vazifasini bajargan. Xalq nazorati organlari tizimining faoliyati 1965-yil 9-dekabrda "SSSR xalq nazorati organlari to'g'risida"gi Qonun, "SSSR xalq nazorati organlari to'g'risida"gi Nizom, shuningdek, SSSR tarkibidagi respublikalar qonunlari bilan belgilangan. Unda Xalq nazorati qo'mitasi, uning tarkibiy tuzilmalari, vakolatlari hamda majburiyatlari tilga olinadi. Shuningdek, Xalq nazorati qo'mitasi raisi va uning o'rinbosarlari, a'zolari, avtonom respublikalar, o'lkalar, viloyatlar, avtonom viloyatlar, okruglar, shahar va tumanlar xalq nazorati qo'mitalari, mehnatkashlar deputatlari qishloq va posyolka Sovetlari huzuridagi xalq nazorati guruhlar, korxonalar, kolxozlar, muassasalar, tashkilotlar va harbiy qismlarda tashkil etilgan xalq nazorati qo'mitalari, guruhlar va postlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Butun SSSR hududida Xalq nazorati organlarining ta'sir doirasini kengaytirish va uning barcha organlar va tashkilotlar orasidagi rolini kuchaytirish maqsadida 1977-yil oktyabrda SSSR yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu konstitutsiyaning 10-BOB, 83-moddasida xalq yoki jamoatchilik nazorati xaqida to'xtalib, shunday deyiladi, "...Muxtor respublika o'z vakolatiga kiradigan

masalalar bo'yicha ittifoq va respublika (ittifoq respublika) tasarrufidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi" [8].

Bundan tashqari konstitutsiyaning 92-moddasida: "Xalq deputatlari Sovetlari korxonalar, kolxozlar, muassasalar va tashkilotlarda davlat nazoratini mehnatkashlar ustidan ijtimoiy nazorat bilan birlashtirgan holda xalq nazorati organlarini tuzadilar. Xalq nazorati organlari davlat rejalari va topshiriqlarining bajarilishini nazorat qiladi, ijro intizomining buzilishi, mahalliychilikning namoyon bo'lishi, biznesga idoraviy yondoshishga qarshi kurash, noto'g'ri boshqarish va isrofgarchilik, firibgarlik va byurokratiya bilan kurashish, shuningdek, davlat apparati faoliyatini takomillashtirishga hissa qo'shishi" haqidagi fikrlar keltiriladi [8]. Shuningdek, SSSRning 1965-yil 9-dekabrda "SSSRda Xalq nazorati organlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq "SSSR Xalq nazorati qo'mitasi" SSSR Vazirlar Kengashining tarkibiga kiritildi [9]. Bu qo'mita xalq nazorati organlariga yuklangan vazifalarga muvofiq, SSSR vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarida, avtonom respublikalar vazirliklarida, davlat qo'mitalari hamda idoralarida, Ittifoqning davlat qo'mitalari va idoralarida, shuningdek, xalq deputatlari mahalliy Sovetlari ijroiya qo'mitalari bo'limlari va bo'linmalarida, korxonalar, kolxozlar, muassasalar va tashkilotlarda tashkil etiladi va nazoratni amalga oshiradi.

SSSR Xalq nazorati qo'mitasi o'z ish faoliyatini olib borib, 1991-yil 16-mayda SSSR Oliy Kengashining beshinchi sessiyasida "SSSR Nazorat palatasi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi, u davlat byudjetidan foydalanishni nazorat qilish huquqini oldi. 1991-yil dekabr oyida ushbu bo'lim tugatildi. Va nihoyat 2014-yil "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)"gi Qonuni qabul qilindi [2]. Bu qonun asosida jamoatchilik nazorati faoliyati yo'lga qo'yildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (DISCUSSION AND RESULTS):

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun loyihasi davlat rahbarining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 44-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida o'rnatilgan tartibda kelishilgan holda ishlab chiqilgan. Respublikamizda, jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, uni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich o'tkazilmoqda. 2018 yil aprelda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun kuchga kirdi. Ushbu qonunga muvofiq "O'zbekiston fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, NNT va OAVlarga quyidagi sohalarida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqi berildi:

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish;
- oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash;
- o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;
- o'rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko'paytirish, takroriy ko'paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish va ulardan foydalanish;
- radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash;
- psixiatriya muassasalari, shuningdek psixiatriya yordami ko'rsatuvchi shaxslar faoliyati ustidan nazorat" [6].

O'tgan davr mobaynida soxani rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega qonunlar qabul qilindi. "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, Qonunlar shular jumlasidandir. Jamoatchilik nazorati institutining izchil rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan qator qonunlar qabul qilindi. "Elektron hukumat to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi, Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonunlar shular jumlasidandir. Yuqorida qayd etib o'tilgan va soxaga oid boshqa qonun xujjatlari yordamida

jamoatchilik nazoratini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu orqali fuqarolarimizning siyosiy-huquqiy ongini yanada yuksaltirish, shu bilan birga normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirishni talab etadi.

“Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonun asosida alohida tashkilot tuzilmagan bo'lsada, qator tashkilotlarda jamoatchilik kengashlari tashkil etilgan. Qonunning 3-moddasiga muvofiq nazorat qilishga vakolatli organlar sifatida quyidagilarni sanab o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlaridir [3].

Qonunda jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi mumkinligi alohida tilga olinadi. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari va prinsplari haqida ham to'xtalib, ular alohida sanab o'tiladi. Masalan, “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonunning 5-moddasiga muvofiq Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish prinsplari quyidagilardir: qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriyligi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyligi va ochiqligi, jamoatchilik nazorati subyektlarining xolisligi va beg'arazligi, jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchliligi, jamoatchilik nazorati subyektlarining davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yilmasligi [3].

Qonunning 6-moddasiga muvofiq Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari quyidagilardir: davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar, davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o'rganish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini

eshitish. Jamoatchilik nazorati qonunchilikka muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

(CONCLUSION AND SUGGESTIONS):

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish bugungi kun talabiga aylanib bormoqda va bu esa fuqarolarimizda davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini sezilarli darajada oshirmoqda. Fuqarolar davlat organlari bilan oshkoralik tamoyili asosida munosabatga kirisha olishi uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi.

1. Jamoatchilik nazorati subyektlarining faolligini kuchaytirish va davlat hokimiyati organlar yoki yuqori tashkilotlarning jamoatchilik nazorati institutining har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarga qarshi kurashda yordam beruvchi funksiyasini yaratish. Zero odamlar ijroiya organlaridan qo'rqmasin, ularga ishonsin.

2. Har bir oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish va bunga davlat hokimiyati organlarida mas'ul lavozimdagi xodimlarni jalb qilgan xolda davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmini takomillashtirish.

References (Adabiyotlar)

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-20596#-38828>
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 16-son, 176-modda
3. O'zbekiston Respublikasining Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-3679092>
4. O'RQ-474-son 12.04.2018 Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi Qonun <https://lex.uz/docs/-3679092>
5. Xalq so'zi 2018-yil 13-aprel 73-son

6. O. Zamanov. Jamoatchilik nazorati: nimalarga e'tibor qaratish kerak.
https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/jamoatchilik_nazorati_nimalarga_e_tibor_qaratish_kerak

7. "Об органах Народного контроля в СССР" Закон СССР от 09.12.1965N 4224-VI // "Ведомости ВС СССР", 1965, N 49, ст. 718 // "Ведомости ВС РСФСР", 1965, N 50 Документ утратил силу в связи с изданием Постановление ВС СССР от 30.11.1979 N 1160-X.

8. Конституция (Основной Закон) Союза Советских Социалистических Республик от 7 октября 1977 г. // Ведомости Верховного Совета СССР. 1977. № 41. Ст. 617 ; Закон СССР от 30 ноября 1979 г. № 1159-X «О народном контроле в СССР» // Ведомости Верховного Совета СССР. 1979. № 49. Ст. 840.

9. Закон СССР от 30 ноября 1979 года "О народном контроле в СССР" (Ведомости Верховного Совета СССР, 1979, N 49, ст. 840; 1987, N 14, ст.189);

10. Б.А.Талапов., Э.О.Ғаппаров. Давлат ҳокимияти маҳаллий органлари фаолиятини демократлаштириш жаражнлари. НамДУ илмий ахборотномаси. 2019. Vol. 1 : Iss. 2 , Article 180. <https://core.ac.uk/download/pdf/285998419.pdf>

11. Umarov, M. M. o'g'li . (2023). O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishi. Innovative Development in Educational Activities, 2(24), 358–362. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10445349>.

12. Umarov, M. M. o'g'li ., & Xabibullayeva, M. A. qizi . (2024). O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda jamoatchilik nazoratining rolini kuchaytirish. Innovative development in educational activities, 3(13), 104–108. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14604102>

13. Karimov Sherzod Abdumalik o'g'li, & Umarov Murodjon Mamatkarim o'g'li. (2025). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- Yangi O'zbekiston taraqqiyotining huquqiy poydevori. In Latin American Journal of Education (Vol. 5, Number 07, pp. 532–539). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17978124>

14. Gapparov, E. O. (2020). Social innovation as a motivating, developing factor in society. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 5(8), 331-333.

15. Гаппаров, Э. О. (2019). Innovation, social innovation and innovation activity: scientific and theoretical approaches. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 152.